



BOSHLANG'ICH SINIF DARS JARAYONIDA INTEGRATSION DARSLARNING AHAMIYATI

Mirzohayitova Muazzam Umidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11071812>

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda integratsion darslar o'tishning foydali xususiyatlari, integratsiyaning afzalliklari, o'quvchiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritilgan.

Qabul qilindi: 17-aprel 2024 yil
Ma'qullandi: 19-aprel 2024 yil
Nashr qilindi: 26-aprel 2024 yil

KEY WORDS

*Integratsiya, integratsion darslar,
integratsion ta'lim, fanlararo
aloqadorlik, aloqadorlik,
samaradorlik, metodika,
innovatsiya*

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, matematika, musiqa va boshqa fanlari nominigina emas, balki yon atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, turli-tumanligining bir butunligi va qiziqarliligi bilan belgilanadi.

Shunday paytda, ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo integratsiyadan kengroq foydalanish zarur. Ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlik tamoyiliga asoslangan ta'lim muassasalaridan foydalanish kerak. Fanlararo uzviylik tamoyili fanlararo munosabatlarning murakkab tomonlarini to'la anglab yetishni va bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishni ta'minlaydi, bu esa turli tizimlarning o'zaro bog'liqligiga, integral yaxlitlikka olib keladi.

Ta'limning integratsiyasi fanlararo aloqaning yuqori darajasi, yaxlit bilimlarni yaratish imkonini beruvchi vositadir. Integratsiya tushunchalari turlicha. Ushbu ta'riflarning umumiy jihati shundaki, integratsiya atrofimizdagi mavjudotning yaxlit ko'rinishiga erishishdir. Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhimdir.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rgatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir.

Biroq, integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, "yoz", "issiq", "quyosh", kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Bu esa o'z o'rnida darslarning qiziqarli va maroqli bo'lishini taminlaydi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar

integratsiyalangan hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Integratsiya - bu aniq bilimlar doirasida yangi g'oyalarni qabul qilish usuli. Avvalo tabaqalashtirilgan bilimlar orasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, ular o'rtasida aloqalar o'rnatish kerak deganidir.

Ammo bugungi kunda biror lug'atda integratsiyaning uslubiy mazmuni haqida biror so'z yo'q. Lekin bu so'z barchamizga tanish. I. Kololozhvari, L. Sechenikovlar integratsiyaning uslubiy mohiyatini ta'riflaydilar: "Integrativ darslarni qanday tashkil qilish kerak?" To'rt yil davomida integratsiyalashgan darslar imkoniyatlarini o'rganganimizdan so'ng, biz ushbu texnikaning kelajagi katta ekanligiga amin bo'ldik. Uning fikricha, o'quvchilar ongida bizni o'rab turgan dunyoning yanada to'laroq va har tomonlama tasavvurini yaratish imkoniyati mavjud. Bolalar olingan bilimlarni amaliyotda faolroq qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, chunki bu ularga bilimning mohiyatini ochish, dunyoni bir butun sifatida tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Buni muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'lim to'g'risida qabul qilayotgan qaror va farmonlarida ham ko'rib turibmiz. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan harakatlar strategiyasining 4-yo'nalishida ham ta'lim tizimi to'g'risida fikr yuritilgan.

Hozirgi vaqtda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan Buyuk Britaniya, Koreya va Shveysariya, Avstraliya Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Kong va Germaniya, Vengriyada turli fanlarni integrativ shaklda o'qitish yo'lga qo'yilgan va bu juda ko'plab ijobiy natijalarga olib kelganini ko'rish mumkin bo'lmoqda. Boshlang'ich sinflarda integratsion darslar o'tishni joriy qilish ijobiy natijalarga olib kelishi borgan sari amaliyotda isbotlanib kelinmoqda. Amaldagi ta'lim jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, u yoki bu o'quv fani mazmunida o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolgan bilim va tushunchalar mavjud. Buning asosiy sababi o'quv fanining mazmunini o'ta murakkab yoki haddan tashqari sodda ekanligidadir. Agar o'quv materialini o'ta murakkab bo'lsa, o'quvchi uni to'liq o'zlashtirishga qiynaladi. Agar sodda va takror holda ifodalangan bo'lsa, bunday o'quv materialini o'zlashtirishga ehtiyoj sezmaydi, undan bezadi.

O'zbekistonda bu sohada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarida Ona tili, O'qish, Matematika, va Inson vajamiat ta'lim sohalari belgilab berilgan. Inson va jamiyat ta'lim sohasi o'zida bir qator o'quv predmetlariga oid tushunchalarini mujassamlashtirgan. Boshlang'ich ta'lim metodikasida Integrativ va innovatsion darslar o'tishning o'ziga yarasha oson tomonlari ham mavjud. Jumladan boshlang'ich sinflarda ko'plab asosiy fanlardan birgina o'qituvchi dars o'tadi. Bu esa o'z o'rnida rejalashtirilgan maqsadlarni amalga oshirishga qulay sharoit yaratib berdi. Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Integrativ ta'lim murakkab dunyoqarashlar bolaga oson tushuniladigan ilmiy, badiiy g'oyalarda, yil mazmunini yaratishga imkon beruvchi obrazli mavzularda o'z aksini topadi. Integratsiyalashgan ta'limning foydali jihatlaridan birlari shularki, bunday darslar orqali

bolalarning dunyoqarashi kengayadi, olamni to'laroq anglay boshlaydilar, hamma narsalardan o'zaro bog'liqlik topa oladilar, mantiqiy hamda murakkab savollarga ham hech qiynalmasdan javob bera oladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda darslarni integratsion usulda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Darslarni integratsion usulda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sarmazmun o'tishini balki o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish va tassavur olamini kengayishini taminlaydi. Fanlararo bog'lanishning mohiyatini ochishga erishiladi. O'quvchilarning darsni tushunishlari osonlashadi va kutiladigan natijalarga oldinroq erishish imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda integratsion darslar o'tishni joriy qilish ijobiy natijalarga olib keladi va bu ko'p jihatdan foydali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
2. " Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va innovatsiya " Farg'ona-2022
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinflarda-integratsiyalashgan-darslarning-maqsad-va-vazifalari-hamda-fanlararo-alloqalarning-ahamiyati>

INNOVATIVE
ACADEMY